

**TURIZM SERVIS XIZMATARINI TASHKIL ETISHDA BAJARILGAN
ISHLAR VA ULARDAGI KAMCHILIKLAR**

*Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda o'tgan bir necha yil ichidagi o'zbek turizimida amalga oshirilgan huquqiy normativ hujjatlar, halqaro shartnomalar hamda bajarilgan ishlar tafsilotlari yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi shartnomalar, hujjatlar, qarorlar va farmonlar mohiyatini aniqroq ochib berish. Bunday hujjatlar ko'p bo'lganligi uchun ulardan asosiyalar yoritiladi.

Kalit so'z: erkin turistik zona, kichik turistik zona, maxsus turistik zona, "Chorvoq" erkin turistik zonasini, QQS.

**WORKS DONE IN THE ORGANIZATION OF THE TOURISM SERVICE
AND THEIR SHORTCOMINGS**

*Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li
Student of Chirchik State Pedagogical University*

Abstract: In this article, the legal and regulatory documents, international agreements and completed works implemented in Uzbek tourism in the past few years are coordinated. The main goals of the article, documents, decisions and decrees are to clarify the decision more clearly. As it is for such instructions, it will be used and covered here.

Key words: free tourist zone, small tourist zone, special tourist zone, "Chorvoq" free tourist zone, QQS.

Dastaval amalga oshirilgan ishlardan biri turistik zonalarni tashkil etish bo'ldi. Muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar (tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog'lomlashtirish obyektlari, shuningdek turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qanoatlanira oladigan boshqa obyektlar) joylashgan, kirish turizmini va ichki turizmni, turistik industriyani rivojlantirish, turistik resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan hudud turistik zonadir. Turizmni kompleks rivojlantirish va turistik resurslarni lozim darajadagi holatda saqlash, tegishli hududning turistik salohiyatini oshirish, shuningdek ularni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilinishini rag'batlantirish maqsadida turistik zonalarning quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

- erkin turistik zona;

- kichik turistik zona;
- maxsus turistik zona.

Erkin turistik zona erkin iqtisodiy zonaga tenglashtiriladi. Erkin turistik zonaga va erkin turistik zonaning ishtirokchilari sifatida ro‘yxatga olingan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonunchilikning qoidalari, shu jumladan erkin iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar hamda preferensiyalar tatbiq etiladi.

Kichik turistik zona kichik sanoat zonasiga tenglashtiriladi. Kichik turistik zonalarga nisbatan kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi qonunchilikning qoidalari tatbiq etiladi.

Maxsus turistik zona belgilangan maxsus hudud bo‘lib, unda turistik resurslar va ushbu hududda muayyan turistik mahsulotni shakllantirish hisobidan turistlarga xizmat ko‘rsatilishini ta’minlovchi turistik industriya obyektlari jamlanadi. Maxsus turistik zonani tashkil etishda ushbu zona ishtirokchilari uchun shartlar, imtiyozlar va preferensiyalar belgilanishi mumkin.

Bunga yaqqol misol qilib “Chorvoq” erkin turistik zonasini va Aydar-Arnasoy zonalarini keltirish mumkin.

Respublikaning turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘sishma sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan qarorga ko‘ra ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlardan biri shuki “ 2024-yil 1-iyulga qadar tajriba tariqasida turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar (joylashtirish, avtomobil yoki temir yo‘l transporti, ekskursiya va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar qamrab olingan) bo‘yicha chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdoridagi mablag‘lar respublika budgetidan subsidiya sifatida qaytariladi”. Unga ko‘ra O‘zbekistonning harqanday istemolchi harididan 1 foiz miqdoridagi mablag‘ni QQS dan qaytarib olgan kabi turoperatorlar ham ular kabi faqat 20 foiz miqdoridagisini qaytarib oladigan bo‘lishdi.

Bu qarorda ushbu bandga ham kelishildi:“2023-yil 1-iyunga qadar O‘zbekiston Respublikasining milliy turizm mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro nufuzli turistik va marketing platformalarida reklama qilish xarajatlarini qoplab berish tartibini tasdiqlasın”. Albatta marketing reklama sohasi turizmning asosiy bo‘g‘inlaridan biri. Buni hisobga olgan holda ushbu band qo‘sildi yani chet el platformalarida reklama qilish.

Ushbu banda ham qo'shimcha qilindi."2023-yil 1-maydan "Uzbekistan Airports" AJ bilan birgalikda:

Farg'ona, Namangan yoki Andijondan Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganchga, shuningdek, Termiz — Nukus, Samarqand — Urganch, Buxoro — Urganch, Farg'ona — Urganch kabi yo'nalishlar bo'yicha muntazam aviareyslarni yo'lga qo'ysin". Bunga misol qilib Toshkent-Zomin hava yo'nalishda avia qatnovlar yo'lga qo'yilganligini aytish mumkin.

Keyingi ishlab chiqilgan qaror "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son TURIZM YO'NALISHIDAGI ISLOHOTLARNI YANADA JADALLASHTIRISH VA SOHADA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" bo'ldi. Turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida qabul qilindi. Qaror qabil qilinshidan asosiy maqsan turli hildagi subsidyalar ko'rinishida turistik tashkilotlarni qo'llab quvatlash bo'ldi misol uchun. Turopertorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratilshi belgilab qo'yildi. Keying bandda esa tashrif buyurovchilarning asosiy talablaridan biri bo'lmish joylashtirish muassasalariga qaratildi.Unda "3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorlarda qoplab berish tizimi joriy qilinsin:

- 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so'm;
- 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so'm". Bunday qaror qabul qilinishi O'zbekistondagi yuqori saviyali mehmonxonararning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Qarorda shuningdek "malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishida:

xalqaro darajada tan olingan ta'lim dasturlarini "franshiza" asosida jalb qilish yo'lga qo'yiladi;

oliy ta'lim dasturlari jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi nufuzli oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida qayta ko'rib chiqilib, ta'lim yo'nalishlari birlashtiriladi;

3 yillik oliy ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi; ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini amaliyot bilan birga olib borishni nazarda tutuvchi amaliyot bazalarini (turoperator, gid (gid-tarjimon), mehmonxona, transport xizmatlari) tashkil etish yo'lga qo'yiladi” bu masalada ham so‘z yuritilgan ammo natijalar unchalik ham ko‘zga tashlanarli bo‘lmadi.

Yaqin davr ichida amalga oshirilgan ishlardan biri 2024 yil 16 yanvar kuni BAA Tashqi ishlar vazirligida O‘zbekiston respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari xukumatlari o‘rtasida viza talablaridan o‘zaro ozod etish to‘g‘risidagi xamkorlik protokoli imzolandi. Xujjatga ko‘r, O‘zbekiston fuqarolari 30 kundan oshmagan muddatda BAA xududida bo‘lishi davrida viza talablaridan ozod etiladi. Xukumatlararo hamkorlik protokoli O‘zbekiston Respublikasining BAAdagi favqulodda va muxtor elchisi A.Aqqulov va BAA Tashqi ishlar vaziri O‘rinbosari Xolid Abdulla Belhul tomonidan imzolandi. Xujjat rasman 2024-yil 16-fevraldan kuchga kirishi belgilab qo‘yildi. Malumot o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki bunga o‘xshash yengillik Eron bilan ham amalga oshirildi. Bu kabi hukumatlar aro, kelushuvlar viza rejimlarining yengillashtirishi fuqarolar tomonidan iliq kutub olinmoqda.

Xulosa qilib aytganda o‘tgan 5 yil ichida bunday qarorlardan juda ko‘plab ishlab chiqildi, ko‘plab xalqaro va milliy tashkilotlar bilan konfrensiyalar amalga oshirildi va ularda ko‘plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. Shularga qaramasdan mamlakat aholisi orasida haligacha turizm haqida yetarlicha tushunchalar mavjud emas. Albatta kelasi yillar davimida bu muammolar ha o‘z yechimlarini topishi aniq. Bazi muammolar bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekiston turizmni rivojlantirishda sekinlik bilan ammo doimiy rivojlanish yo‘lidan ketmoqda.

Maqolada keltirilgan qarorlar va farmonlardan ayrim bandlarigina ochib berishga harakat qilindi va to‘liq bandda ko‘plab sohalarda yangiliklar ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son TURIZM TO‘G‘RISIDA.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2023 yildagi PQ-135-son RESPUBLIKANING TURIZM SALOHIYATINI JADAL RIVOJLANTIRISH HAMDA MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR SONINI YANADA OSHIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son TURIZM YO‘NALISHIDAGI ISLOHOTLARNI YANADA

JADALLASHTIRISH VA SOHADA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA.

4. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-fuqarolari-uchun-vizasiz-boradigan-davlatlar-soni-yana-bittaga-kopaydi_558118
5. <https://en.irna.ir/news/85371424/Official-Iran-s-one-way-visa-wavier-with-28-countries-to-take>